

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**BURG'ILASHDA TOG' JINSLARINI YEMIRISH  
FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN USLUBIY  
QO'LLANMA**

**TOSHKENT – 2017**

«Burg‘ilashda tog‘ jinslarini yemirish» fanidan amaliy ishlarni bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Tuzuvchi: kata o‘qituvchi Muratova M.I. Toshkent: ToshDTU, 2017. 34 b.

Ushbu uslubiy qo‘llanmada burg‘ilashda tog‘ jinslarini emirish fanidan amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha topshiriqlarni bajarish haqidagi ma’lumotlar va ko‘rsatmalar berilgan.

Uslubiy qo‘llanma «5311700 – Foydali qazilma konlari geologiyasi, qidiruv va razvedkasi» ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun ko‘zda tutilgan.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-uslubiy qarori asosida nashr etildi.

Taqrizchilar: Roziqov O.T. - «Foydali qazilmalar geologiyasi va qidiruv ishlari» kafedrasи mudiri;  
Satibaldiyev B.M. - Olmazor Politexnika KXK maxsus fanlar o‘qituvchisi

## **Kirish**

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarni burg‘ilashda tog‘ jinslarini yemirishning zamonaviy usullari va jinslarning asosiy fizik va mexanik xususiyatlarini aniqlash usullari bilan tanishtirishdan iboratdir.

Fanni o‘qitish vazifalari:

1. Talabalarni tog‘ jinslarinig yemirish nazariy va amaliy zamonaviy usullarini o‘rgatish;

2. Tog‘ jinslarin fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash usullarini o‘rgatish.

3.Talabalarga tog‘ jinslarining burg‘ilanish bo‘yicha klassifikatsiyalanish muammolarini hal qilish yo‘llarini o‘rgatish.

Fanni o‘zlashtirishda talabalarga ularning ko‘nikma, bilim va malakalariga qo‘yiladigan talablar.

1. Talaba tog‘ jinslarini yemirish usullari to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlarni puxta o‘zlashtirish kerak;

2.Talaba tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash usullarini puxta o‘zlashtirishi kerak;

3.Talabalar tog‘ jinslarining burg‘ilanishi bo‘yicha klassifikatsiyasidan foydalanishni bilihlar kerak.

Fanning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uni o‘rganishdagi uslubiy ketma-ketligi.

Fanni o‘rganishda yangi pedagogik texnologiyalarini qo‘llash.

Ta’limning faol usullari ishlataladi, bilimlarini chiqurlashtirish maqsadida shaxsiy topshiriqlar bajaradilar.

Burg‘ilashda tog‘ jinslarini yemirish, burg‘ilash jarayonidagi asosiy texnologiyalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonni o‘rganish konkret sharoitlar uchun jinslarni yemiruvchi asboblarni to‘g‘ri tanlash va burg‘ilash rejim parametrlarini ratsional qiymatlarini aniqlash imkonini beradi.

### **1- amaliy mashg‘ulot**

#### **Tog‘ jinslarining dinamik mustahkamligini aniqlash**

Tog‘ jinslarining dinamik mustahkamligi  $F_q$  va abrazivligini  $K_a$  aniqlash yo‘li bilan ularning kategoriyalari topiladi. Bu ko‘rsatkichlar asosida jinslarning umumlashtirilgan ko‘rsatkichi  $\rho_m$  quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\rho_m = 3 \cdot F_q^{0,8} \cdot K_a;$$

Jinslarning dinamik mustahkamligi va abrazivligi qiymatlari POAP-2M asboblar komplekti yordamida aniqlanadi. Umumlashtirilgan ko'rsatkich qiymatlariga qarab geologik-qidiruv partiya va ekspeditsiyalarda shkalalar ishlab chiqilgan.

### 1- jadval

#### **Jinslarni burg‘ilanishi bo‘yicha kategoriyalari uchun ρ<sub>m</sub> ning qiymatlari**

Jinslar kategoriyasi	ρ <sub>m</sub>	Jinslar kategoryasi	ρ <sub>m</sub>
V	4,5-6,8	IX	22,9-34,2
VI	6,9-10,1	X	34,3-51,2
VII	10,2-15,2	XI	51,3-76,8
VII	15,3-22,8	XII	76,8 yukori


Umumlashtirilgan ko'rsatkich ρ<sub>m</sub> shkalasining amaliy ahamiyati shundaki, u tog‘ jinslarining burg‘ilanish bo‘yicha kategoriyalarini mexanik tezlik va boshqa usullar bilan aniqlashdagi hatoliklarni bartaraf etadi.

Ushbu usul V – XII – kategoriyadagi tog‘ jinslarini kernli va kernsiz aylanma usul bilan burg‘ilash uchun o‘rnlidir.

Yuqoridagi usul katta qoldiq deformatsiyaga ega bo‘lgan va yuqori bo‘laklangan jinslar uchun ishlatilmaydi.

#### **Jinslarning dinamik mustahkamligini aniqlash, F<sub>q</sub>.**

Jinslarning dinamik mustahkamligi POK rusumli asbob yordamida aniqlanadi, ya’ni POK asbobi POAP – 2M asbob komplektining tarkibiy qismini tashkil etadi.



**rasm 1.POK asbobining sxemasi.**

a) 1- namuna solinadigan stakan;

2 - naychasimon stupa

3 – yuk

4 – jins namunalari

b) 1 – hajm o‘lchovchi quvur,

2 – silindr,

3 – shkala.

POK asbobi (1 - rasm) naychasimon stupa (a) va hajm o‘lchovchi qismdan (b) tarkib topgan.

Namuna jinslar aylanma burg‘ilash usuli bilan olingan kernlardan olinadi. Namunalarning o‘lchovlari: uzunligi 20-25 sm – 46 – 59 mm. li koronka bilan burg‘ilanganda va 15-18 sm – 76-93 mm. li koronkalar bilan burg‘ilanganda.

Aniqlanishi kerak bo‘lgan jins namunalari 1,5 – 2 sm o‘lchovdagi bo‘lakchalarga maydalanadi. Bu bo‘lakchalardan ikkita namuna olinadi; har bir namuna 25 ta bo‘lakchalardan iborat qilib olinadi va 5 ta dan bo‘lakcha qilib 5 ta qismga ajratiladi.

Namunalarning har bir qismi (5 ta bo‘lakdan iborat bo‘lgan) namuna solinadigan stakanga joylashtiriladi. Namuna og‘irligi 2,4 kg bo‘lgan yukni 60 sm. balandlikdan o‘n marta tashlab maydalanadi.

Shunday qilib maydalangan 5 qismdagi namunalar tirqishi 0,5 mm bo‘lgan elakdan o‘tkaziladi. Elakdan o‘tgan, ya’ni 0,5 mm dan kichik bo‘lgan fraksiyalar hajm o‘lchovchi quvur ichiga solinadi. Quvur ichiga silindr tushiriladi va undan hisob olinadi ( h ).

Dinamik mustahkamlik ko‘rsatkichi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$F_q = 20 \cdot n / h = 200 / h;$$

Bu yerda  $n$  – yukni tashlash soni, shartga ko‘ra  $n = 10$  ga teng.

$F_q$  ning qiymati ikki marta o‘lchangan qiymatning o‘rtachasi qilib olinadi.

### *Nazorat uchun savollari*

1. «Dinamik mustahkamlik» deb nimaga aytiladi va u qanday aniqlanadi?
2. POK asbobining tuzilishi va dinamik mustahkamlikni aniqlashdagi ish tartibi.
3. Quyidagi qiymatlar uchun dinamik mustahkamlik  $F_q$  hisoblansin:  $h_1 = 20$  mm,  $h_2 = 18$  mm,  $h_3 = 10$  mm,  $h_4 = 7$  mm,  $h_5 = 3$  mm. Mustahkamligi bo‘yicha qaysi jinslar guruhiqa kiradi?

## **2- amaliy mashg‘ulot Jinslarning abrazivlik ko‘rsatkichini aniqlash**

Yuqoridagi tajribadagi 0,5 mm va undan kichik fraksiyalar toza qog‘oz ustiga solinadi va ikki uch marta aralashtiradi toki bir gil qorishma hosil bo‘lguncha. Undan so‘ng qog‘oz dis holiga keltiriladi. Qog‘ozdagи namunalarning qarama-qarshi tomonlaridan 1 sm<sup>3</sup> hajmdagi namuna va 21 dona diametri 3,25 mm bo‘lgan qo‘rg‘oshin donalari solinadi. Qo‘rg‘oshin donalari solinishidan avval 5 mg aniqlikda tortiladi. Namuna solinadigan silindr POAP-2M asbobiga joylashtiriladi, schyotchik 1400 raqamga to‘g‘rilab qo‘yiladi. Asbob 20 minutdan so‘ng avtomatik tarzda to‘xtaydi, shu vaqt mobaynida elektrodvigatel 28000 oborotga aylanadi. Asbobning ishlash vaqtida qo‘rg‘oshin donalari ishqalanib yoyiladi. Tajriba tugagach, qo‘rg‘oshin donalari 5 minut davomida namuna solinadigan silindrda yuviladi, silindr 2/3 mikdorda suvgaga to‘ldiriladi. O‘ndan keyin donachalar

quritiladi, toza latta bilan artiladi va undan keyin torozida tortiladi. SHunday qilib qo‘rg‘oshin donalarining yo‘qotgan og‘irligi aniqlanadi.

Jinslarning abrazivlik koeffitsiyenti quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$K_a = Q - Q_1 / 100 ;$$

Bu yerda  $Q$  – donalarning tajribagacha bo‘lgan og‘irligi, mg;

$Q_1$  – donalarning tajribadan so‘ngi og‘irligi, mg.

Abrazivlik koeffitsiyenti ikki kara o‘tkazilgan tajribaning o‘rtacha qiymati bilan aniqlanadi.

Tog‘ jinslarining klassifikatsiyasi dinamik mustahkamlik  $F_q$  va abrazivlik  $K_a$  bo‘yicha ishlab chiqilgan.

## 2-jadval

### Tog‘ jinslarining dinamik mustahkamligi bo‘yicha klassifikatsiyasi

Ko‘rsatkichl ar	Dinamik mustahkamlik bo‘yicha jinslar guruhi					
	I	II	III	IV	V	VI
Dinamik mustahkamli k koeffitsiyenti , $F_q$	8,0	8-16	17- 24	25-32	33-40	40 dan yukori
Dinamik mustahkamli k darajasi	kichi k	etarl i	o‘rt a	Mustahkamli k	Juda mustahkamli k	O‘ta mustahkamli k

## 3-jadval

### Jinslarning abrazivligi bo‘yicha klassifikatsiyasi

Ko‘rsatkichlar	Abrazivlik bo‘yicha jinslar guruhi					
	I	II	III	IV	V	VI
Abrazivlik koeffitsiyenti, $K_a$	0,5	0,6-1,0	1,1-1,5	1,6-2,1	2,2-2,5	2,6-3,0
Abrazivlik Darajasi	Kam abraziv	Etarli abraziv	O‘rta abraziv	abraziv	Kuchli abraziv	O‘ta abraziv

## ***Nazorat uchun savollar***

1. «Jinslarning abrazivligi» deb nimaga aytiladi va u POAP-2M asbobi bilan qanday aniqlanadi.
2. POAP-2M asbobining tuzilishi to‘g‘risida va uning ish prinsipi to‘g‘risida gapirib bering.
3. Umumlashtirilgan ko‘rsatkich  $\rho_m$  qanday hisoblab topiladi va uning yordamida jinslar kategoriyasi qanday aniqlanadi.
4. Quyidagi qiymatlar uchun abrazivlik ko‘rsatkichlari  $K_a$  aniqlansin:  
$$Q = 420 \text{ mg}, Q_1 = 300 \text{ mg}, Q_3 = 360 \text{ mg}, Q_4 = 380 \text{ mg}.$$
Abrazivligi bo‘yicha hisoblangan abrazivlik koeffitsiyenti bo‘yicha qaysi jins guruhga kiradi.

### **3-amaliy mashg‘ulot**

#### **Tog‘ jinslarining metodologik tuzilishiga ko‘ra burg‘ilanish buo‘icha kategoriyasini aniqlash va ularning mexanik xususiyatlariga qarab tiplarga ajratish**

Tog‘ jinslarining metodologik tuzilishiga ko‘ra burg‘ilanishi bo‘yicha kategoriyasini aniqlash va ularning mexanik xususiyatlariga qarab tiplarga ajratish.

Tog‘ jinslarining aylanma-mexanik burg‘ilash bo‘yicha klassifikatsiyasi bilan va jinslarning mexanik xususiyatlariga ko‘ra klassifikatsiyasi bilan tanishtirish; amaliy dars mavzusi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga erishtirish.

1. Amaldagi tog‘ jinslari klassifikatsiyalarini o‘rganish.
2. Jinslarni mexanik xususiyatlariga ko‘ra tiplarga ajratishni o‘rganish.
3. Topshiriq variantlari bo‘yicha jinslarni burg‘ilanish bo‘yicha kategoriyasini aniqlash.
4. Jinslarni mexanik xususiyatlariga ko‘ra tiplarga ajratish.

**Topshiriq:** Quyidagi tog‘ jinslarining burg‘ilanishi bo‘yicha litologik tuzilishiga ko‘ra kategoriyalarini, mexanik xususiyatlari qiymatlarini aniqlash va jinslarning mexanik xususiyatlari bo‘yicha tiplarga ajratishni bajarish:

#### 4-jadval

Konning genezisi	Jinslarning litodologik tuzilishi
Magmatik	Slanets – rogovikli Porfirit bazaltli darzdor. Sienito – diorit kvarsli . Diorit kvarsli rogoviklangan.
Metemorfik	Peschanik ohakli sement asosida. Izvestnyak qisman kremniylashgan. Slanets – uglisto – amfibolli. Gnes kvars – amfibolli.
Cho'kindi	Alevrolit temirlashgan. Alevrolit zichlangan. Dolomitlangan izvestnyak. Dolomit mayda qumlangan.

#### 5-jadval

#### **Jinslarni burg‘ilanishi bo‘yicha tiplarga ajratilishi**

Jinslarning burg‘ilanish bo‘yicha guruhi	Jinslar xarakteristikasi	Jinslar xususiyatlari	
		$\rho$ ?	Kategoriya
I	Oliy darajada qattiq	51 – 115	XI – XII
II	Jinslar qattiq va qattiq	15 – 51	VIII – X
III	O‘rtacha qattiq	6,8 – 15	VI – VII
IV	Kichik qattiq	3,0 – 6,8	IV – V
V	YUmshoq	1 – 3	I – III

#### *Nazorat uchun savollar*

1. Tog‘ jinslarini parchalashning qaysi turi eng samarali hisoblanadi ?
2. Burg‘ilash asboblarining qanday turlari mavjud?
3. Texnologik burg‘ilash rejimi deb nimaga aytildi?
4. Burg‘ilashning mexanik tezligi reys tezligidan, texnik tezlik kommersiya tezligidan nima bilan farqlanadi?

#### **4- amaliy mashg‘ulot**

##### **Tog‘ jinslarining mustahkamligini aniqlash usullari va uni tog‘ jinslarining ba’zi fizik – mexanik xususiyatlari bilan bog‘liqligi**

Talabalarning tog‘ jinslarining kontakt mustahkamligini aniqlash metodikasi bilan tanishtirish:

1.Tog‘ jinslarini kontakt mustahkamligini aniqlash metodikasini o‘rganish:

2.Jinslarni kontakt mustahkamligi bilan jinslarni bir o‘q bo‘ylab siqilishidagi vaqtincha qarshiligi  $\delta_{sj}$ , M.M. Protodyakonov bo‘yicha jinslarning qattiqligi va Shreyner bo‘yicha jinslarning agregat qattiqligi ko‘rsatkichlari orasidagi korrelyasion bog‘lijni o‘rganish.

3.Jinslarni kontakt mustahkamligini  $\delta_{sj}$ ,  $f$  va  $R_{sh}$  ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisoblash amaliyotini o‘zlashtirish.

Tog‘ jinslarining mexanik usulda parchalash jarayonini asosli hisoblash metodikasini ishlab chiqishda, jinslarning parametrlarini miqdoriy jihatdan baholash va o‘lchashga asoslanadi.

Hozirgi paytda aylanma mexanik usul bilan jinslarni parchalashdagi har xil turdagи keskichli asboblar (olmosli va qattiq qotishmali koronkalar), hamda shtirli va tishli sharoshkali dolotolar ishlatilmoqda. Ushbu dolotolar bilan tog‘ jinslarini parchalash jarayoni mahalliy kontakt ta’sirida olib boriladi, ya’ni asbob tishlarining jinslar qatlamiga botishi nisbatan kichkina (yuzaki parchalash).

Tog‘ jinslarini qatlam yuzasida parchalashning miqdoriy baholash uchun L.I. Baron, A.B. Glatman va A.N. Melnikovlar tomonidan jinslarni kontakt mustahkamligini sinovdan o‘tkazish metodikasi tavsiya etilgan. Ushbu metod laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida ham qo‘llanishi mumkin.

Kontak mustahkamligi sinovlarining mohiyati shundaki, tabiy jins namunasi yuzasiga silindrik formadagi (a) yoki kesilgan konus formadagi (b) indentorni botirishdan iborat.

Ushbu metod mo‘rt – ko‘chishga moyilligi bor bo‘lgan jinslarga indentor botishi natijasida chuqurga hosil bo‘ladigan tog‘ jinslari uchun ishlatiladi. Bunday tog‘ jinslari ko‘pgina qattiq foydali qazilma konlari kesimini tashkil etadi. Sinov uchun olingan namunalar monomet bo‘lakchadan iborat bo‘lib, hajmi  $250 - 300 \text{ sm}^3$  va balandligi  $120 - 150 \text{ mm}$  bo‘lishi kerak. Amalda diametri  $40 - 140 \text{ mm}$  bo‘lgan kern sinov uchun yaroqli hisoblanadi, agar uning baladligi  $120 - 150 \text{ mm}$ . dan kam bo‘lmasa.

Namuna yuzasiga umuman ishlov berilmaydi, yoki murakkab bo‘lman yuza shaklida bo‘ladi, ya’ni qirralarining taxminiy parallelligi ta’minalashi lozim. Bu erda kernni kesadigan qurilma ham ishlatalishi mumkin.

Qattiq va mustaxkam jinslarni sinash uchu nasos yuzasi  $S_{sh}=5 \text{ mm}^2$  va va o‘rtalikdagi hamda o‘rtadan kamroq qattiqlikdagi jinslar uchun esa asos yuzasi  $S_{sh}=10 \text{ mm}^2$  bo‘lgan qattiq qotishmali indekatorlar ishlataladi.

Sinov olib borilayotgan jins namunasi yuzasi indekator yo‘nalishiga taxminan perpendikulyar bo‘lishi kerak.

Indekatorni bostirish bir priyomda bajariladi, toki chuqurcha hosil bo‘lguncha bu moment bostirish harakatining birdan kamayishi bilan qayd etiladi – 40 – 100 % ga. Yuklama tezligi 3 – 15 mm/min.dan ortmasligi kerak.

Kontakt mustahkamligi qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_k = R/S_{sh}; \text{ Pa}$$

bu yerda

R – chuqurcha hosil bo‘lganda indekatorga berilgan yuklama, N.  $S_{sh}$  – indentor asosiy yuzi,  $\text{mm}^2$ . kontakt mustahkamligi yuklamasi 20000 N.dan 100000 N.gacha bo‘lgan gidravlik yoki mexanik presslarda aniqlanishi mumkin.

Katta hajmdagi sinov natijalarga ko‘ra jinslarning turli xususiyatlarida kontakt mustahkamlik  $R_k$  va jinslarning qattiqlik koeffitsiyenti orasidagi quyidagi bog‘liqlik aniqlangan:

$$1) R_k = 4,4 \cdot f_B^{1,5};$$

bu yerda

$$f_B = [(\delta_{sj}/300) + (\sqrt{\delta_{sj}}/38)]$$

bu yerda  $f_B$  – L.I. Baron bo‘yicha jinslarning qattiqligi.

$\delta_{sj}$  – jinslarning bir o‘q bo‘ylab siqilishiga ko‘rsatgan vaqtincha qarshiligi;

$$2) R_k = (f_p/0,63)^{1,67}$$

Bu yerda  $f_p = \delta_{sj}/100$ ;

$f_p$  – M.M. Protodyakonov bo‘yicha jinslarning qattiqlik koeffitsiyenti.

$$3) R_k = 6,0 + 0,7 \cdot R_{sh};$$

bu yerda  $R_{sh}$  – L.A. Shreyner bo‘yicha jinslarning agregat qattiqligi ko‘rsatkichi (Shtamp bo‘yicha jins qattiqligi).

### **Nazorat uchun savollar**

1. Tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlariga nimalar kiradi?
2. Jinslarning dinamik mustahkamligi, abrazivligi va darzdorliklari qanday aniqlanadi?
3. Tog‘ jinslarining burg‘ilanishi bo‘yicha kategoriyalari qanday aniqlanadi?

### **5-6- amaliy mashg‘ulotlar**

**Quyidagi tog‘ jinslari uchun kontakt mustahkamligi uchta model bo‘yicha hisoblansin**

### **6-jadval**

#### **Koni mansur koni**

<b>Nº</b>	<b>Tog‘ jinslari</b>	$\delta_{sj}, Pa$	$R_{sh}, Pa$
1	Mayda zarrachali skarnlar	$1948 \cdot 10^5$	$121 \cdot 10^7$
2	Granodlorit	$2785 \cdot 10^5$	$97 \cdot 10^7$
3	Brekchiya	$1790 \cdot 10^5$	$81 \cdot 10^7$
4	Porfirlar	$1309 \cdot 10^5$	$83 \cdot 10^7$
5	Izvitnyak	$346 \cdot 10^5$	$41 \cdot 10^7$

### **7-jadval**

#### **Chorux – Dayron koni**

<b>Nº</b>	<b>Tog‘ jinslari</b>	$\delta_{sj}, Pa$	$R_{sh}, Pa$
1	Granodlorit	$1592 \cdot 10^5$	$208 \cdot 10^7$
2	Porfirit	$2581 \cdot 10^5$	$427 \cdot 10^7$
3	Izvitnyak	$1028 \cdot 10^5$	$94 \cdot 10^7$
4	Skarnalar	$2083 \cdot 10^5$	$267 \cdot 10^7$

1)  $R_k=4,4 \cdot f_B^{1,5}$  bu erda  $f_B$  – jinslarning Baron bo‘yicha qattiqligi va u quyidagicha aniqlanadi.

$$f_B = \delta_{sj}/300 + \sqrt{\delta_{sj}/38}; \text{ bu erda}$$

$\delta_{sj}$  – jinslarning bir o‘q bo‘ylab siqilishdagi ko‘rsatgan qarshiligi.

1. Mayda zarrachali skarnlar uchun

$$\delta_{sj}=1948 \cdot 10^5 \text{ Pa} \quad R_{sh}=121 \cdot 10^7 \text{ Pa}$$

Uning uchun  $\delta_{sj}=1948 \text{ kgs/sm}^2$ .

$$f_B = 1948/300 + \sqrt{1948/38} = 6,5 + \sqrt{51,3} = 6,5 + 7,15 = 13,65$$

U holda

$$R_k=4,4 \cdot 13,65^{1,5}=4,4 \cdot 48,5=213,4 \text{ kgs/sm}^2.$$

2)  $R_k=(f_p/0,63)^{1,67}$ ;

$f_p$  – Protodyakonov M.M. bo‘yicha jinslarning qattiqligi.

$$f_B = \delta_{sj}/100 + 1948/100 = 19,48;$$

$$R_k=(1948/063)^{1,67}=(30,9)^{1,67}=148 \text{ kg/sm}^2$$

3)  $R_k=0,6+0,7 \cdot R_{sh}$ ;  $R_{sh}=121 \cdot 10^2 \text{ kgs/mm}^2$ ;

U holda

$$R_k=0,6+0,7 \cdot 121 \cdot 10^2=85,3 \cdot 10^2 \text{ kgs/mm}^2.$$

### ***Nazorat uchun savollar***

1. Tog‘ jinslarining fizik-mexanik xususiyatlariga nimalar kiradi?
2. Jinslarning dinamik mustahkamligi, abrazivligi va darzdorliklari qanday aniqlanadi?
3. Tog‘ jinslarining burg‘ilanishi bo‘yicha kategoriyalari qanday aniqlanadi?

## 7- amaliy mashg‘ulot Tog‘ jinslari darzdorligini aniqlash metodikasi

Darzdorlik bu tog‘ jinslarida paydo bo‘lgan va turli o‘lchovlardagi yoriqlar yig‘indisiga (majmuasiga) aytiladi.

Darzlarning quyidagi turlari mavjud: tektonik, alohida yoriqlar, shamol ta’sirida nuragan (выветриванием), qiyalanish, qatlamlarga ajralish, serkatlamlik (naplastovanie) va surilish. Darzdorlik burg‘ilash jarayonini og‘irlashtiradi, yuvish suyuqliklarini o‘ziga singdiradi (yutadi), chiqayotgan kern miqdorini kamaytiradi, quduq devoridagi jinslarning mustahkamligini susaytiradi, jinslarning abrazivligini oshiradi.

Tog‘ jinslarining darzdorligini eng qulay va soda, baholash me’zoni – kern miqdoridir. Biroq burg‘ilash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, kern miqdori jinslarning fizik holatiga (g‘ovaklik, bo‘shliq, slanetslanganligi va boshqalar) va qo‘llanilayotgan burg‘ilash texnologiyasi hamda burg‘ilash asboblariga bog‘liq ekan.

Shuning uchun darzdorlikning sonli ko‘rsatgichi sifatida kerning maydalanish darjasini qabul qilingan. Kernni maydalanish darjasiga solishtirma bo‘lakdorlik bilan aniqlanadi. Bo‘lakdorlik deganda 1m uzunlikdagi kern ichidagi alohida bo‘laklar, jins siniqlari va ustunlari soni tushuniladi. Olinayotgan kern miqdoriga va burg‘ilashning texnik-iqtisodiy ko‘rsatgichlariga kern o‘qiga nisbatan 0-30 burchak bilan yotgan yoriqlar ko‘proq ta’sir qiladi.

Olmosli burg‘ilashda ishlatiladigan tog‘ jinslarining darzdorlik bo‘yicha klassifikatsiyasi 8-jadvalda keltirilgan.

**8 -Jadval**

Tog‘ jinslarining darzdorlik bo‘yicha	Jinslarining darzdorlik darjasini	Jinslarining darzdorlik darajasini baholash mezoni	
		Kerning solishtirma donadorligi $K_u$ dona /m	Kern miqdori $V_k$ , %
I	Monolit	1-5	100-70
II	Kamdarzli	6-10	90-60
III	Darzli	11-30	80-50
IV	Kuchli darzli	31-50	70-40
V	Maydalangan	51	60-30

## **Tog‘ jinslarining mustahkamligi**

Tog‘ jinslarining mustahkamligi deganda ularning burg‘ilash quduqlar va tog‘ lahmlarini o‘tkazganda qulab ketmaslik xususiyatiga tushuniladi. Tog‘ jinslarining mustahkamligi ularni tashkil etuvchi zarrachalarning o‘zaro bog‘liqligi, darzdorlik darajasiga va shamol kuchi ta’sirida purkanganligiga bog‘liqdir. Shu bilan birga quduqlarning ta’sir etish vaqtı katta ahamiyatga ega: ya’ni quduqlarning uzunligi oshishi bilan jinslarning mustahkamligi shuncha kamayib boradi.

Jinslarning ushbu belgilar bilan to‘rtta guruhga ajratish mumkin

I – guruh – uta nomustahkam jinslar. Bu guruhga zarrachalari o‘zaro bog‘lanmagan jinslar (qum, shag‘al, graviy) kiradi. Bu jinslar suv bilan to‘yingan zarrachalar orasidagi bog‘lanish kuchlari umuman qiymatga ega bo‘lmaydi.

Bunday jinslar bir vaqtini o‘zida obsadka quvurlari bilan mustahkamlash va maxsus yuvish suyuqliklarini qo‘llash yo‘li bilan burg‘ilanadi.

II – guruh – o‘zgaruvchan mustahkamlikka ega bo‘lgan jinslar. Bunday jinslar o‘zaro murakkab bog‘liqqa ega bo‘lib, bu bog‘liqlik jinslar suvga to‘yinganda yoki qizdirilganda yo‘qoladi, yuvish suyuqliklari ta’sirida yuviladi yoki eriydi. Bunday jinslar jumlasiga lesslar, suglonok, gillar, eruvchan foydali qazilmalar hamda muzlagan jinslar kiradi.

Bu jinslar iliq haroratda suyuqliklar ta’sirida o‘z mustahkamligini yo‘qotadilar, oquvchan yoki eruvchan bo‘lib qoladilar. Bu esa quduq devorlarini torayishiga, oqilishiga, yuvilishiga, salniklar, g‘ovaklar (kaverni) hosil bo‘lishiga olib keladi, buning natijasida esa burg‘ilash snaryadlarini tortilishi, qisilishi va uzelishi yuz berishi mumkin. Vaqt o‘tishi bilan bu jinslarning mustahkamligi ham susayib boradi. Bunday jinslar maxsus usul va metodlar bilan burg‘alanadi.

### ***Nazorat uchun savollar***

1. Darzdorlik deb nimaga aytildi va ularning turlari?
2. Tog‘ jinslarining mustahkamligi va ahamiyati?
2. Jinslarning mustahkamligi qanday aniqlanadi?

## 8- amaliy mashg‘ulot

### VITR bo‘yicha jinslarning darzdorligini baholash

Jinslarning darzdorligini baholashning ushbu metodikasi P.P. Ponomarev tomonidan tavsiya etilgan. Ushbu metodikada jinslarning maydalanganlik darjasida ularning solishtirma bo‘lakdorligi qabul qilingan  $K_{sol}$ . Bu ko‘rsatkich 1 metr olingan kern ichida bo‘lakchalar soni bildiradi.

Solishtirma bo‘lakdorlikning ishonchliligi chiqayotgan kern miqdoriga bog‘liq, ya’ni kern chiqishi qancha yuqori bo‘lsa, darzdorlikni solishtirma bo‘lakdorligi bo‘yicha jinslarning darzdorligi shuncha ishonchli bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich jinslarning haqiqiy darzdorligini to‘la aks ettiradi va kern chiqishga qaraganda burg‘ilash texnologiyasiga bog‘liq emas.

Kernning solishtirma darzdorligi bilan burg‘ilashning asosiy parametrlari (olmosning solishtirma sarfi, burg‘ilash mexanik tezlik) orasida kerrelyasion uzviy bog‘liqlik o‘rnatalgan. Bu kerrelyasion bog‘liqlik korrelyasion koeffitsient bilan xarakterlanadi. Bu korrelyasion koeffitsient  $0,69?0,96$  oralig‘ida bo‘ladi.

Jinslarni darzdorlik darajasini baholashda qo‘srimcha kriteriya sifatida kern chiqishidan foydalanish mumkin. Biroq bu ko‘rsatkich jinslarning darzdorlik xarakteristikasigina bo‘lmay, balki u ma’lum miqdorda jinslarning holatiga (uning g‘ovakligi, kaverdorligi, shamoldan emirilganligi va h.k), qo‘llanilayotgan burg‘ilash texnologiyasi (koronka diametri va turi, burg‘ilash rejimi, snaryadning tebranishi, yuvish suyuqligi miqdori va sifatida va boshqalar) bog‘liqdir. Bu esa geologik kesimning o‘zicha xos xususiyati, quduq chuqurligi va konstruksiyasini aniqlab beradi.

Jinslarning darzdorligini yanada to‘laroq aniqlash uchun yana bir usul – jinslarning darzdorlik ko‘rsatkichi W ishlataladi.

Bu ko‘rsatkich koronkaning bir oborotida uchraydigan darzlar soni bilan aniqlanadi.

$$W=a \cdot B/L;$$

Bu yerda a – darz ta’sir qiladigan vertikal bo‘yicha kern uzunligi.

V – burg‘ilangan intervaldagi darzlar soni;

L – burg‘ilangan interval uzunligi.

Burg‘ilangan oraliqdagi darzlar sonini solishtirma bo‘laklanishi bo‘yicha aniqlash mumkin.

$$V=K_{sol} \cdot \lambda \cdot L$$

Bu yerda  $\lambda$  – tajriba koeffitsiyenti, ikkilamchi jinslarning maydalanishi darajasini inobatga oluvchi; (Amaliy hisoblarda o‘rtacha  $\lambda=0,7$  qilib olinadi).

Kernning vertikal bo‘yicha uzunligi quyidagicha aniqlanadi

$$a=v/\tan\beta;$$

bu yerda  $v$  – kern diametri, m;

$\beta$  – darz tekisligi bilan quduq o‘qining uchrashish burchagi, gradus.

Yuqorida keltirilgan jinslarning darzdorligini aniqlovchi uchta metodlar murakkab emas, maxsus apparaturalar talab qilinmaydi va bajarilishi sodda.

## 9-Jadval

### **Kolonkaviy burg‘ilash uchun jinslarning darzdorligi bo‘yicha klassifikatsiya ishlab chiqilgan**

Darzdorlik bo‘yicha jinslar guruhi	Darzdorlik darjasasi	Darzdorlik darajasini baholash kriteriyasi		
		Solishtirma bo‘lakdorlik, $K_{sol}$ dona/m.	Darzdorlik ko‘rsatkichi, $W, S_d/ob$	Kern chiqishi $V_K, \%$
1	Monolit	1-5	0,50 gacha	100-70
2	Kuchsiz darzdorlangan	6-10	0,51-1,00	90-60
3	Darzdor	11-30	1,01-2,00	80-50
4	Kuchli darzdor	31-50	2,01-3,00	70-40
5	Juda kuchli darzdorlangan	51 va yuqori	3,01 va yuqori	60-30

**Topshiriq:** Jinslarning  $K_{sol}$  bo‘yicha darzdorlik ko‘rsatkichi  $W$  aniqlansi va darzdorlik darajasiga ko‘ra jinslar tiplarga ajratilsin. Jadval-2 berilgan burg‘ilashning 2 reysi natijalaridan foydalanilsin.

## 10-jadval

### Jinslarning dinamik mustahkamligi $F_d$ bo'yicha tipizatsiyalanishi

$F_d$ ni qiymati	Jinslarning mustahkamlik xarakteristikalari
<16	Sezilarli
>16	Yuqori

Burg'ilash diametri 59 mm. (ichki diametri 42 mm) bo'lgan koronka bilan amalga oshirilgan.

#### *Nazorat uchun savollar*

1. Darzdorlik deb nimaga aytildi?
2. VITR bo'yicha darzdorlik qanday o'lchanadi?

#### 9-10- amaliy mashg'ulotlar

#### **Olmosli koronkaga beriladigan og'irlik kuchini hisoblash**

a) Bir qatlamlı olmosli koronkaga beriladigan og'irlik kuchi N.P. Tarakanov bo'yicha quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R_o = 0,55 \cdot m_o \cdot R_{sh} / d_{cr}, \text{ dan}$$

Bu yerda

$m_o$  – ishchi olmoslar massasi, karat

$R_{sh}$  – jinslarning shtamp bo'yicha qattiqligi, kg/mm<sup>2</sup>.

$D_{cr}$  – olmos zarrachasining o'rtacha diametri, mm.

Impregnirlangan olmosli koronkalar uchun og'irlik kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_o = 0,55 \cdot m_o \cdot R_{sh} / h_m, \text{ dan}$$

Bu yerda

$m_o$  – ishchi olmoslar massasi, karat

$R_{sh}$  – jinslarning shtamp bo'yicha qattiqligi, kg/mm<sup>2</sup>.

$H_m$  – koronka matritsasining balandligi

Bir qatlimli va pregnirlangan koronkalar uchun  $h_m = 15$ mm ni tashkil etadi.

**Misol:** Slaneslarni burg'ilash uchun bir qatlamlı olmosli koronkani 01AZD20K30 tanlaymiz. Koronkaga beriladigan og'irlik kuchini hisoblaymiz. Hisoblash uchun berilganlar:  $m_o=8$  karat (koronkaning texnik

xarakteristikasiga ko‘ra)  $R_{sh}=400-500$  kgs/mm<sup>2</sup> (ilovadagi 11 – jadvalga qarang).

## 11 -jadval

### Olmos zarrachalarining shartli o‘rtacha diametri

Olmoslarning donadorligi sh/karat Z	20-10	30-20	40- 30	60- 40	90- 60	150- 120	400- 150
O‘rtacha diametri mm, $d_{ur}$	2,65	2,25	1,80	1,55	1,43	1,13	0,90

$$R_o = 0,55 \cdot 8(400?500)/2,25 = 782-978, \text{ dan}$$

b) L.G. Gorshkovga ko‘ra koronkaga beriladigan og‘irlik kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_o = \alpha_e \cdot \delta_{sj} \cdot S_{ko}, \text{ dan}$$

Bu yerda

$\alpha_e$  – zaboydagi sharoitlarni inobatga oluvchi koeffitsient.

$A_e = 1,2-2,0$  (mo‘rt va darzdor jinslar uchun quyi qiymat zich va qovushqoq jinslar uchun yuqori qiymat olinadi).

$\Delta_{sj}$  – tog‘ jinslari siqilishidagi mustahkamlik chegarasi, kgs/mm<sup>2</sup>.  $\delta_{sj} = 100 \cdot f$

bu erda  $f$  – tog‘ jinslarining M.M. Protodyakonov bo‘yicha qattiqlik koeffitsienti.  $S_{ko}$  – hajmli olmoslarning zaboya bir vaqtligi kontak yuzasi summasi, sm<sup>2</sup>;

$$S_{ko} = \pi d_{cp} \cdot h \cdot Zj, \text{ sm}^2.$$

Bu yerda

$d_{cp}$  – olmos zarrasining o‘rtacha diametri, mm.

$h$  – olmos zarrasining jinsga botish chuqurligi, sm.

Bir qatlamlili olmosli koronkalar uchun  $h = (0,25 ? 0,4) \cdot ha$ ;

Impregnirlangan koronkalar uchun  $h = (0,25?0,4) \cdot ha$ ;

Bu yerda

$ha$  – olmoslar zarrasining koronka matritsasidan chiqib turish qiymati, sm .

$Z_j$  – zaboy bilan bir vaqt ni o‘zida kontakda bo‘ladigan hajmli olmoslar soni.

Bir qatlamlili koronkalar uchun  $Z=0,50 \cdot Z_o$ ;  
Impregnirlangan koronkalar uchun  $Z_j=0,50 \cdot Z_o$ ;

$$Z_o = m_o \cdot Z;$$

Bu yerda  $m_o$  – koronkadagi hajmli olmoslar massasi, karat;  
 $Z$  – hajmli olmoslarning donadorligi, dona/karat.

**Misol:** Slanetslarni burg‘ulaganda 01AZD20K30 bir qatlamlili koronkaga beriladigan og‘irlik kuchi hisoblansin.

Hisob uchun berilganlar:

$$m_o = 8 \text{ karat}; Z = 20 \text{ dona / karat}$$

$$h = (0,25 \cdot 0,4) \cdot h_a = (0,25 \cdot 0,4) \cdot (0,3 \div 0,25) = 0,07 - 0,1 \text{ mm}$$

$$h_{sr} = (0,07 \cdot 0,1) / 2 = 0,085 \text{ mm}$$

$$Z_o = m_o \cdot Z = 8 \cdot 20 = 160 \text{ dona};$$

$$Z_j = 0,67 \cdot 160 = 107 \text{ dona};$$

$\delta_j = 100 \cdot f$  IX kategoriya dagi tog‘ jinslari uchun  $f = 14-16$   
 $S_{ko} = 3,14 \cdot 25 \cdot 0,085 \cdot 107 = 64,3 \text{ mm}^2$  yoki  $0,643 \text{ sm}^2$ .

$$\Delta_j = 100(14 \cdot 16) = 1400 \cdot 1600, \text{ kgs/sm}^2;$$

$a_s = 1,2$  – kamdarzlangan slanetslar uchun.

U holda

$$R_o = 1,2(1400 \cdot 1600) \cdot 0,643 = 1080-1235 \text{ dan}$$

v) I.A. Sergienko bo‘yicha bir qatlamlili va pregnirlangan olmosli koronkalar uchun og‘irlik kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_o = R_{sol} \cdot S_{rp}; \text{ dan}$$

Bu yerda  $R_{sol}$  – solishtirma og‘irlilik kuchi bir qatlamlı olmosli koronkalar uchun

$$R_{sol}=10^{-2} \cdot \alpha_1 \cdot S \cdot K_1 \cdot \beta; \text{ kgs/mm}^2.$$

Impregnirlangan koronkalar uchun

$$R_{sol}=\alpha_2 \cdot R_{sh} \cdot K_2, \text{ kgs/mm}^2.$$

Bu yerda  $\alpha_1=0,30?0,55$  – jinslarni parchalanish xarakterini inobatga oluvchi proporsionallik koeffitsiyenti (jinslarning qattiqligi oshgan sari bu qiymat kamayib boradi).

$$R_{sh} – jinslarning shtamp bo‘yicha qattiqligi, \text{ kgs/mm}^2.$$

$S$  – olmosli koronka yuzasining olmoslar bilan nisbiy boyiganligi (bir qatlamlı koronkalar uchun  $S=0,35-0,40$ , pregnirlangan koronkalar uchun esa  $S=0,2?0,27$ ).

$K_1=1$  – olmoslar bilan nisbiy boyitilganlini oshishi va kamayishi inobatga oluvchi koeffitsient.

$B$  – hajimli olmoslarning sifatini inobatga oluvchi koeffitsiyent, ovollangan olmoslar uchun  $\beta=1,25-1,35$ ; maydalanga olmoslar uchun  $\beta=1$ .

$A_2=(1,1?1,3) \cdot 10^{-3}$  – proporsionallik koeffitsiyenti  $K_2$  – koronkadagi olmoslar

miqdori 12-16 karat bo‘lganda,  $K_2=1$  deb qabul qilinadi.

Darzdar va abraziv tog‘ jinslari burg‘ilanganda tuzatuvchi koeffitsiyent  $\alpha=0,7?0,8$  kiritiladi.

**Misol:** 01A3D20K30 bir qatlamlı olmosli koronkaga beriladigan og‘irlilik kuchi hisoblansin.

Berilgan:  $R_{sh}=400-500, \text{ kgs/mm}^2$ ;  $\alpha_1=0,30$ ;  $S=0,40$ ;  $K_1=1$ .  $\beta=1$  – maydalangan olmoslar uchun;  $S_{rp}=12,6 \text{ sm}^2$  – diametri 76 mm bo‘lgan olmosli koronkalar uchun (12 – jadval).

## 12-jadval

### Olmosli koronkalarining konstruktiv parametrlar

Diametri $D_t$ / $D_i$	Yuvish kanallari soni	$\beta=\alpha/D$	Karonkaning ishchi yuzasi $S_{iyu}, \text{sm}^2$
36/22	2	0,611	4,14
46/31	4	0,673	6,00
259/42	4	0,711	8,50
76/59	6	0,775	12,60

U holda

$$R_o = 10^2 \cdot 0,30 \cdot 0,40 \cdot (400?500) \cdot 1 \cdot 1 \cdot 1260 = 604-756, \text{ dan}$$

N.P.Tarakanov, L.G. Gorshkov va I.A. Serchinko bo'yicha hisoblab topilgan og'irlik kuchi qiyatlari spravochniy adabiyotlar tavsiya qilingan og'irlik kuchi bilan taqqoslanadi. [3,4,5];

### ***Nazorat uchun savollar***

1. Olmosli koronkalar qanday sharoitlarda ishlataladi?
2. Dolotaga beriladigan og'irlik kuchi qanday aniqlanadi?
3. Olmosli koronkalarning qanday turlari mavjud?

### **11- amaliy mashg'ulot**

#### **Qattiq qotishmali koronkalarga beriladigan og'irlik kuchini hisoblash**

Qattiq qotishmali koronkalar bilan burg'ilashda og'irlik kuchi quyidagi formula bilan hisoblaniladi:

$$R_o = m \cdot h \cdot b \cdot \operatorname{tg} \alpha \cdot R_{sh} \cdot \sin(\alpha + 2\varphi_p) / \cos^2 \varphi_p; \text{ dan}$$

Bu yerda  $m$  – koronkadagi asosiy keskinlar soni, dona;

$h$  – keskichni jinsga botish chuqurligi, mm;

$b$  - keskichni eni, mm.

$\alpha$  – keskichni o'tkirlanish burchagi gradus;

$\varphi_p$  – ichki ishqalanish burchagi, gradus.

$R_{sh}$  – jinsning shtamp bo'yicha qattiqligi,  $\text{kgs/mm}^2$ ;

Kornkadagi keskichlar soni uning konstruksiyasiga qarab aniqlanadi

$$h = (0,5?0,9)h_p;$$

bu yerda  $- h_p$  – keskichning koronka yuzasidan siqib turish qiyati, mm.

M turdag'i koronka uchun  $h_p = 3 \text{ mm}$ .

SM turdag'i koronka uchun  $h_p = 1,5 \text{ mm}$ .

CA va ST turdag'i koronka uchun  $h_p = 0,5 \text{ mm}$ .

Yumshoq va o'rta qattiqlikdagi jinslar uchun o'tkirlanish burchagi  $\alpha = 45?50^0$ , qattiqroq jinslar uchun  $\alpha = 70^0$ ;

$\phi_p$  ning qiymati 13 – jadvaldan olinadi.

### 13-jadval

#### Qattiq qotishmali keskichlar uchun $\alpha$ va $\phi_p$ ning qiymatlari

Keskichning o'tkirlanish burchagi, gradus $\alpha$	35	45	50	70
Ichki ishqalanish burchagi, $\phi_p$	15	17	20	22

**Misol:** SA-4-76 turdag'i qattiq qotishmali koronkaga beriladigan og'irlik kuchi hisoblansin: VIII kategoriyadagi izvestnyak.

**Berilgan:**  $m=16$  dona;  $h=0,5 \cdot 0,5=0,25$ ;  $b=2,5$  mm;  
 $\alpha=50^0$ ,  $\phi_p=20^0$ ;  
 $P_m=200-300$  kgs/mm<sup>2</sup> VIII – kategoriyadagi tog' jinslari uchun.  
U holda

$$R_o = 16 \cdot 0,25 \cdot 2,5 \cdot 1,2 \cdot (200-300) \cdot 1 / 0,88 = 2720?4080 \text{ dan}$$

Hisobdan chiqqan qiymat spravochniy adabiyotligi tavsiya etilgan qiymat bilan taqqoslanadi.

#### Nazorat uchun savollar

1. Qattiq qotishmali koronkalarning qanday turlari mavjud?
2. Qattiq qotishmali koronkalar bilan burg'ilash texnologiyasi qanday bo'ladi?

#### 12- amaliy mashg'ulot

#### Sharoshkali dolotaga beriladigan og'irlik kuchini hisoblash

a) Barcha turdag'i (M, S, T, K) sharoshkali dolotalarga beriladigan og'irlik kuchi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$R_o = \alpha \cdot \sigma_{sj} \cdot S_k, \text{ dan.}$$

Bu yerda  $\alpha$  – zaboy sharoitida jinslar qattiqligini o'zgarishini inobatga oluvchi koefitsiyent  $\alpha=0,75$ ;

$\sigma_{sj}$  – jinslarni siqilishidagi mustahkamlik chegarasi, kgs/mm<sup>2</sup>;

$S_k$  – sharoshkali dolotaning zaboy bilan kontakt yuzasi;

**Misol:** 1-93T-76 turdagи shoroshkali dolotoga beriladigan og‘irlik kuchi hisoblansin, VII kategoriyada izvestnyak.

**Berilgan:**  $\alpha=0,75$ ;  $\sigma_{sj}=1/7 \cdot (200-300)=29-43 \text{ kgs/mm}^2$ ; sharoshka tishlari 0,4 mm ga chuqurlashganda, 13 jadvalga ko‘ra  $S_k=47\text{mm}^2$

U holda

$$R_o=0,75(29?43)\cdot 1022?1515, \text{ dan.}$$

**b)** Sharoshkali dolotaga beriladigan og‘irlik kuchi shuningdek quyidagi formula bilan ham hisoblanishi mumkin.

$$R_o=F_H \cdot \sigma_{sj}, \text{ dan}$$

Bu erda  $F_H$  – dolotaning boshlang‘ich tayanch yuzasi,  $\text{sm}^2$

$$F_n=h_z \cdot D_d \cdot b, \text{ mm}^2;$$

$$\sigma_{sj}=1/7 \cdot R_{sh}, \text{ kgs/mm}^2$$

bu yerda  $h_z$ - sharoshka tishlarini o‘zaro yotish koeffitsiyenti  $h_z=1,05?2,0$ ;

$D_g$  – dolota diametri, mm.

$b$  – sharoshka tishlarining boshlang‘ich o‘tmasligi, mm.  $b=1,0 \text{ mm}$ .

**Misol:** 1V-93T rusumdagи sharoshkali dolotaga beriladigan og‘irlik kuchi hisoblansin. VIII kategoriyadagi izvestnyak.

**Berilgan:**

$$h_g=1,5; D_g=93\text{mm}; b=1\text{mm}; R_{sh}=200-300\text{kgs/mm}^2;$$

$$\sigma_{sj}=29-43 \text{ kgs/mm}^2;$$

U holda

$$R_o=1,5 \cdot 93 \cdot 1(29-43)=2022?2999, \text{ dan.}$$

Hisoblash natijalari sprovochniy adabiyotlarda qiymatlar bilan taqqoslanadi. [3,4,5];

### **Nazorat uchun savollar**

1. Sharoshkali dolotaflar boshqa turdagи dolotalarga nisbatan qanday afzalliklarga ega?
2. Kurakchali sharoshkali, olmosli dolotalar va pikoburlar qanday tuzilgan?
3. Turli dolotalar bilan burg‘ilashda rejim parametrlari qanday aniqlanadi ?

### **13- amaliy mashg‘ulot**

#### **Olmosli koronkalarning aylanish chastotasini hisoblash**

**A)** O.V. Ivanov bo‘yicha olmosli koronkalarning aylanish chastotasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$n = 19,1 \cdot (3,64 - 0,0038 \cdot P_{sh}) / D_s \text{ ob/min.}$$

Bu yerda

$R_{sh}$ - jinslarning shtamp bo‘yicha qattiqligi, GPa

$D_s$  – quduq diametri, m

$D_s = 1,1 \cdot D_k;$

$D_k$  – koronka diametri.

**Misol:** Diametri 76 mm bo‘lgan 01AZD20K30 bir qatlamlı olmosli koronkaning IX kategoriyadagi slanetslarni burg‘ilashdagi aylanish chastotasi hisoblansin.

**Berilgan:**

$$R_{sh} = 4-5 \text{ GPa}; \quad D_s = 1,1 \cdot D_k = 1,1 \cdot 0,076 = 0,08 \text{ m} \cdot D_k = 0,076 \text{ m}.$$

U holda

$$n = 19,1(3,64 - 0,0038 \cdot (4-5)) / 0,08 = 865 \text{ ob/min}$$

**B)** Olmosli koronkaning aylanish chastotasini quyidagi formula bilan ham hisoblash mumkin:

$$n = 60 \cdot w_o / (\pi D_s); \text{ ob/min}$$

bu yerda

$w_o$  – koronkani aylanma tezligi, m/s; (14 – jadval)

$D_s$  – koronkaning o‘rtacha diametri, m.

## 14-jadval

### Olmosli koronkalarning aylanma tezliklari $\omega_0$ , m/s

Koronka turi	Jinslar xarakteristikasi	Jinslarning burgulanish buyicha kategoriyasi	Aylanma tezlik $\omega_0$ , m/s
Bir qatlamlı	Monolit va zich	VI-VIII IX-X	1,4-2,5 0,8-2,0
	Darzdor va abraziv	VI-VIII IX-X	0,8-2,0 0,6-1,0
Impregnirlangan	Monolit va zich	IX-X XI-XII	0,6-1,0 2,5-3,5
	Darzdor va abraziv	IX-X XI-XII	2,0-3,0 1,6-2,2

**Misol:** Diametri 76 mm bo'lgan 01A3D20K30 rusumdag'i bir qatlamlı olmosli – koronka bilan burg'ilashdag'i (IX – kategoriyadagi slanetslar) aylanish chastotasi aniqlansin:

**Berilgan:**

$$\omega_0 = 0,8 \text{ ?} 2,0, \text{ m/s} \quad D_s = (0,076 + 0,059) = 0,068 \text{ m.}$$

u holda

$$n = 60 \cdot (0,8-2,0) / (3,14 \cdot 0,068) = 705 \text{ ?} 1765 \text{ ob/min}$$

#### *Nazorat uchun savollar*

1. Olmosli koronkalar qanday afzalliklarga ega?
2. Olmosli koronkalarning ishlatalish sharoitlari.
3. Dolotaning aylanish chastotasi qanday aniqlanadi?

## 14-15- amaliy mashg'ulotlar

### Qattik qotishmali koronkalarning aylanish chastotasini hisoblash

Qattiq qotishmali koronkalarning aylanish chastotasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$n = 60 \omega_0 / \pi D_s; \text{ ob/min}$$

bu yerda

$\omega_0$  – qattiq qotishmali koronkaning aylanish tezligi, m/s.

$D_s$  – koronkani o'rtacha diametri, m.

**Misol:** VII kategoriyadagi izvestnyakni burg‘ilashdagi diametri 76 mm bulgan SA4 rusumdagи qattiq qotishmali koronkaning aylanish chastotasi hisoblansin.

**Berilgan:**

$$w_o = 0,6?1,2 \text{ m/s}; (14 - \text{jadval}).$$

$$D_s = (0,076 + 0,059) / 2 = 0,068 \text{ m.}$$

u holda

$$n = 60 \cdot (0,6?1,2) / (3,14 \cdot 0,68) = 168?337 \text{ ob/min}$$

**15-jadval**

**Olmosli koronkalarning aylanma tezliklari  $\omega_0$ , m/s**

Koronka turi	Jinslar xarakteristikasi	Jinslarning burg‘ulanish bo‘yicha kategoriyasi	Aylanma tezlik $\omega_0$ , m/s
Bir qatlamlı	Monolit va zich	VI-VIII IX-X	1,4-2,5 0,8-2,0
	Darzdor va abraziv	VI-VIII IX-X	0,8-2,0 0,6-1,0
Impregnirlangan	Monolit va zich	IX-X XI-XII	0,6-1,0 2,5-3,5
	Darzdor va abraziv	IX-X XI-XII	2,0-3,0 1,6-2,2

**Sharoshkali dolotalarning aylanish chastotasini hisoblash**

Sharoshkali dolota bilan burg‘ilashda aylanish chastotasi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$n = 60 \cdot W_0 / (3,14 \cdot D_d); \text{ ob/min}$$

bu yerda

$W_0$  – dolotaning aylanma tezligi, m/s.

$D_d$  – dolota diametri, m.

**Misol:** 1V-93T rusumdagи sharoshkali dolotoning VIII kategoriyadagi izvestnyakni burg‘ilashdagi aylanish chastotasini aniqlang:

**Berilgan:**  $W_0 = 0,8?1,2 \text{ m/s}$  (16 – jadval);

$$D_d = 0,093 \text{ m}$$

U holda

$$n=60 \cdot (0,8-1,2)/(3,14 \cdot 0,093)=164-337 \text{ ob/min}$$

Hisob natijalarini spravochniy adabiyotlarda tavsiya etilgan qiymatlar bilan taqqoslanadi.

### 16-jadval

#### Sharoshkali dolotalarning aylanma tezligi

Dolota turi	Jinslarning burg'ulanish bo'yicha kategoriyasi				
	I-II	III	IV-V	VI-VII	VIII-IX
M	0,8-1,2	1,2-1,4	-	-	-
C	-	1,0-1,4	0,8-1,2	-	-
T	-	-	-	0,8-1,2	0,6-1,0
K	-	-	-	-	0,6-0,6

#### Nazorat uchun savollar

1. Qattiq qotishmali koronkalarning qanday turlari mavjud?
2. Qattiq qotishmali koronkalarning ishlatalish sohasi qanday?
3. M, SM va SA turdag'i qattiq qotishmali koronkalarning ishlatalish sharoitlari.

### 17 jadval

#### Gidravlik uzatmali burg'ilash stanoklari va qurilmalarning texnik xarakteristikasi

Parametrlari	UKB-50/ 100	UKB-200/ 300	UKB-4P- 300/ 500	UKB-5P- 500/ 800	UKB-7P- 1200/ 2000	ZIF-650 M	ZIF - 1200M R
Skvajinani oxirgi diametrida burg'ilash chuqurligi,m							
<b>93 mm</b>	50	200	300	500	1200	650	1500
<b>59 mm</b>	100	300	500	800	2000	800	2000
Quduqning boshlang'ich diametri, mm	132	132	151	151	214	200	250

**17 jadvalning davomi**

<b>Burg‘ilash quvurlari diametri, mm</b>	42	42;50; 54	42;50; 54;55	50;54; 63,5; 68	50;54; 55; 63,5;6 8;70	50;54 ;	50;54; 63,5;68; 70
<b>Aylanish chastotasi, ob/min:</b>							
<b>1- diapazon</b>	155; 325; 590; 1000	110;20	155;28 0;390; 430;68 0;710; 1100;1 615	120; 260; 340; 410; 540; 720; 1130; 1500;	0 – 1200 (pogon asiz)	81; 118; 188; 254; 340; 460; 576; 800;	75; 136; 231; 288; 336; 414; 516; 600;
<b>2- diapazon</b>	305; 650; 1170; 2000	160; 290; 515; 805; 1180;	–	–	–	–	–
<b>Suv berilishini eng katta qiymati dachi, kN:</b>							
<b>yuqoriga</b>	20	40	60	85	150	80	150
<b>pastga.</b>	15	30	40	65	120	30	50
<b>Lebedkani yuk ko‘tarish kuchi, kg</b>	600	2000	2500	3500	5500	3500	5500
<b>Barabanga kanatnio‘rash tezligi, m/s</b>	0,7;1,5 ; 2,8; 4,7;	0,69; 1,25; 2,25; 3,50; 5,15	0,9; 1,75; 2,75; 2,7; 4,0	0,8; 1,75; 2,7; 3,6	0–8,0 (rejada gi tezlikn ing o‘zgari shi)	0,7; 0,95; 1,5; 2,04; 2,72; 3,7; 4,6; 6,24	1,24; 2,1; 2,61; 3,04; 3,76; 4,70; 5,24;

## 18-jadval

### Burg‘i nasoslarining texnik xarakteristikasi

<b>Parametrlari</b>	<b>9MGr</b>	<b>11Gr</b>	<b>NB12 5/ 16</b>	<b>NB26 3/ 40</b>	<b>NB3 120/40</b>	<b>NB432 0/63</b>	<b>NB5- 320/ 100</b>
<b>Suvning berilishi, l/min</b>	220;100	225;300	25	16; 25; 40; 63	15; 19; 40; 70; 120;	32;55; 105; 125;180 ;320;	32;55; 105; 125; 180;320;
<b>Bosim, MPa</b>	16,0;3,5	6,3;5	1,6	4,0; 2,5; 4,0; 2,2;	4,0; 4,0; 4,0; 4,0; 2,0	6,3; 6,3; 6,3; 6,3; 5,5; 3,0	10,0; 10,0; 10,0; 10,0; 10,0; 6,0
<b>Quvvat, kVt:</b>							
<b>Privoddagi</b>	74,0	35,4	3,3	3,0	7,5	22,0	40,0
<b>Gidravlik</b>	59,0	25,5	0,63	2,5	5,0	12,0	32,0
<b>Plunjер diametri (porshen), mm</b>	90; 100; 115; 127;	80; 90; 100;	45	45	63	45; 80	45; 80
<b>Plunjер diametri (porshn),mm</b>	250	150	45	40	60	90	90
<b>1 minutda ikkilamchi yurish soni</b>	55; 90	100	390	96,5; 240; 146,5	31; 38; 80; 146; 249	95; 140; 260	95; 140; 260
<b>Plunjeler soni (silindrlarni)</b>	2	2	1	3	3	3	3

**19-jadval**

**Qattiq foydali qazilmalarni burg‘ilashda qo‘llaniladigan obsadka  
quvurlarining asosiy o‘lchamlari**

Parametrlar	Me’yorlar				
<b>Nippelli o‘tkichlar</b>					
Quvurning va nippel-ning tashqi diametri,mm	73	89	108	127	146
Quvur devori qalinligi,mm	5,0	5,0	5,0	5,0	5,0
Nippelning ichki diametri,mm	62,0	78,0	95,5	114,5	134,5
Tashqi diametr,mm					
Tashqi rezbaning	68,5	84,5	103,0	122,0	141,0
Ichki rezbaning	68,54	84,55	103,05	122,0	141,06
Rezbaning ichki diametri, mm	67,0	83,0	101,5	120,5	139,5
Quvur uzunligi, mm	1500; 3000; 4500; 6000				
1m quvur og‘irligi, kg	8,4	10,4	13,0	16,0	17,4
<b>Nippelsiz o‘tkichlar</b>					
Quvur va nippelning tashqi diametri,mm	34	44	57	73	89
Quvur devori qalinligi,mm	3,0	3,5	4,5	5,0	5,0
Tashqi diametr,mm:					
Tashqi rezba	31,6	42,0	54,0	69,5	85,5
Ichki rezba	31,632	42,032	54,040	69,540	85,550
Rezbaning ichki diametri,mm	30,1	40,5	52,5	68,0	84,0
Quvur uzunligi,m	1500; 3000	1500; 3000	1500; 3000; 4500	1500; 3000; 4500; 6000	1500; 3000; 4500; 6000
1m quvur og‘irligi, kg	3,0	4,0	5,2	8,4	10,4

**20-jadval**

**Normal rezbali obsadka quvurlarining tasnifi**

Shartli diamet r, mm	Quvur razmerlari,mm			1m quvurni ng teoretik og‘irligi, kg	Muftalar razmeri,mm		Muftaning teoretik massasi,kg
	Tashq i diame tr	Devor qalinligi	Ichki diame tr		Tashq i diame tr	Uzunli gi	
144	144,3	6	102,3	16,0	133	158	4,8
		7	100,3	18,5			
		8	98,3	21,0			
127	127,0	6	115	17,9	146	165	6
		7	113	20,7			
		8	111	23,5			
		9	109	26,2			
140	139,7	6	127,7	19,8	159	171	7,1

## **Adabiyotlar**

1. Kalinin A.G. и Технология бурения разведочных скважин.- Москва. 2004.-749 с.
2. Егоров Н.Г. Бурение скважин в сложных геологических условиях.ИПП “Гриф К”, Тула. 2006.
3. Raximov M. «Burgilashda tog jinslarini parchalash». Ma’ruzalar matni. ToshDTU. –Toshkent 2010.-612 b.
4. Raximov M. “Tog‘ jinslarini parchalash” fanidan kurs loyihasini bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar. - Toshkent, ToshDTU. 2010.68 b.
5. Raximov M., Yo‘ldoshev SH. “Quduqlarni burg‘ilash” o‘quv qo‘llanmasi. Mineral resurslar ilmiy tadqiqot instituti DQ.Kadrlar tayyorlash markazi Toshkent, 2015.139 b.
6. Raximov M., Tursunov J.A..”Burg‘ilash dastgohlarining tuzilishi va burg‘ilash texnologiyasi” o‘quv qo‘llanmasi.-Toshkent. ToshDTU, 2016. 170 b.

## Mundarija

Kirish	2
amaliy ish 1. Tog‘ jinslari dinamik mustahkamlik va abrazivlik Umumlashtirilgan ko‘rsatkichini aniqlash	2
amaliy ish 2. Jinslarning abrazivlik ko‘rsatkichini aniqlash	5
amaliy ish 3. Tog‘ jinslarining metodologik tuzilishiga ko‘ra burg‘ilanish bo‘yicha kategoriyasini aniqlash va ularning mexanik xususiyatlariga qarab tiplarga ajratish	7
amaliy ish 4. Tog‘ jinslarining kontakt mustahkamligini aniqlash metodikasi va uni tog‘ jinslarining ba’zi fizik – mexanik xususiyatlari bilan bog‘liqligi	9
amaliy ish 5-6. Quyidagi tog‘ jinslari uchun kontakt mustahkamligi uchta model bo‘yicha hisoblansin.	11
amaliy ish 7. Tog‘ jinslari darzdorligini aniqlash metodikasi	13
amaliy ish 8. VITR bo‘yicha jinslarning darzdorligini baholash	15
amaliy ish 9-10. Olmosli koronkaga beriladigan og‘irlik kuchini hisoblash	17
amaliy ish 11. Qattiq qotishmali koronkalarga beriladigan og‘irlik kuchini hisoblash	21
amaliy ish 12. SHaroshkali dolotaga beriladigan og‘irlik kuchini hisoblash	22
amaliy ish 13. Olmosli koronkalarning aylanish chastotasini hisoblash	24
amaliy ish 14-15. Qattik qotishmali koronkalarning aylanish chastotasini hisoblash	25
Adabiyotlar	32

**Muharrir Sidikova K.A.**